

SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI NAZORAT QILISHDA ULARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH BILAN BOG'LIQ MUNOSABATLAR

Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li

*Toshkent amaliy fanlar universiteti, Bank-molya kafedrası Katta o'qituvchi
Bank-molya akademiya mustaqil tadqiqotchi*

Ключевые слова: *Налоговая система, налоговое бремя, виды налогов, налоговая реформа, концепция налога, налоговое администрирование, уплата налогов, обязательные платежи*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования форм и методов налогообложения, как важного показателя администрирования. Даны предложения по совершенствованию налогового законодательства....*

Keywords: *tax system, tax burden, types of taxes, tax reform, tax concept, tax administration, tax and mandatory payments*

Annotation: *this article shows existing shortcomings of tax system, in particular, high level of tax burden, availability of many types of taxes, etc, which make the need for reforms in this sector. Therefore, a draft concept of tax system was developed*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunga muvofiq yangi tahrirda tasdiqlangan bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Ushbu qonunda tadbirkorlik faoliyati subyektlari huquqlarining kafolatlari hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlarini himoya qilish har tomonlama mustahkamlab qo'yilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar bilan o'zaro munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qilib, unga muvofiq qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyekti foydasiga talqin etilishi nazarda tutilgan.

Jahonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mamlakatlarning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilib borish, soliq

tekshiruvlarini amalga oshirishda inson omilini bartaraf qilish, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olish va soliq to'lovchilar tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik yuzasidan davlat budjeti daromadlariga yetkazilgan zararlarni qoplashning ahamiyati ortib bormoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari Oliy sudi sudyasi Oliver Vendel ta'biri bilan aytganda, soliqlar biz rivojlangan jamiyatda yashashimiz uchun to'lovdir [1]. Darhaqiqat soliqqa tortish davlatning muhim funksiyasi hisoblanadi. Soliqlar har qanday davlat shakllanishining asosiy manbayi sanaladi. Negaki, soliqlar davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning eng muhim vositasi bo'lib, bozor munosabatlarining rivojlanishida, davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Soliqlar hisobidan davlat budjetiga kelib tushuvchi manbalarning asosiy qismi shakllanadi va jamiyat manfaatlari yo'lida foydalaniladi. Soliqlar ommaviy xizmatlar, ya'ni yo'llar, mudofaa, sud, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamning nafaqasi va yana ko'plab davlatlarda ta'lim hamda sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash uchun ham to'lanadi. Shu jihatdan aytishimiz mumkinki, soliqlarning asosiy funksiyasi fiskal, ya'ni davlat budjetini to'ldirish hisoblanadi. Davlat budjetiga tushgan mablag'lar davlat funksiyalarini amalga oshirish yo'lida sarf qilinadi. Albatta, davlat budjeti va maqsadli jamg'armalariga kelib tushuvchi to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'lanilishi, soliq to'lovchilarni hisobga olish, soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash, soliqdan qochish yoki bo'yin tovlash holatlarini oldini olishda soliq nazorati tadbirlariga ehtiyoj seziladi. Ushbu tadqiqot ishida soliq nazorati, uning mamlakatimizda shakllanish tarixi, soliq nazoratining ahamiyati va mohiyati to'g'risida so'z boradi

Adabiyotlar tahlili va metodologiya matni: O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 1 yanvardan boshlab amalga kiritilgan Soliq kodeksi 135-moddasida ham soliq to'lovchi (soliq agenti) to'g'risida qonunchilik talablarini buzgan holda olingan hujjatlar yoki boshqa axborot ushbu shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emasligi ko'zda tutilgan.

Demak, xulosa qilishimiz mumkinki Soliq kodeksida bu kabi qoidalarining qat'iy belgilab qo'yilishi soliq nazorati jarayonida barcha tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlari himoya qilinishining kafolatlanganligidan darak beradi desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilib 2022 yil 30 maydan 14 iyungacha muhokamaga qo'yilgan "O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi" loyihasida ham mazkur kodeksning asosiy vazifalaridan biri sifatida tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanligi ko'zda tutilgan. Shuningdek aytishimiz joizki, ushbu kodeks loyihasida tadbirkorlik subyektlari huquqlarining ustuvorligi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan tartib-qoidalar ko'zda tutilgan. Mazkur

kodeks loyihasining 209-moddasida tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari alohida belgilab qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomda soliq to'lovchilarning qonuniy huquq va manfaatlari nazarda tutilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, ushbu nizomning 3-bob, 17-bandida soliq tekshiruvlarini o'tkazishda soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan:

- soliq organlari mansabdor shaxslarining tekshiruv masalalariga aloqasi bo'lmagan talablarini bajarmaslik;

- soliq tekshiruvlarini o'tkazishda shaxsan yoki o'z vakili orqali ishtirok etish;

- soliq tekshiruvini amalga oshiruvchi soliq organlariga soliq to'g'risidagi qonunchilikning ijrosiga taalluqli masalalar bo'yicha tushuntirishlar berish;

- soliq to'lovchi talab qilib olinayotgan hujjatlarni soliq organiga taqdim etmaslikka haqli, agar ushbu hujjatlar yoki ularning nusxalari oldin soliq organlariga oldingi o'tkazilgan kameral yoki sayyor soliq tekshiruvlarida yoxud soliq monitoringini o'tkazish jarayonida taqdim etilgan bo'lsa;

- ekspertni rad etish va ekspertni o'zi ko'rsatgan shaxslar orasidan tayinlash to'g'risida iltimos qilish;

- soliq organi mansabdor shaxsining ruxsati bilan ekspertiza o'tkazishda ishtirok etish va ekspertga tushuntirishlar berish, ekspertning xulosasi bilan tanishish;

- soliq tekshiruvi materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomasini olish;

- soliq organlari mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti- harakatlari yuzasidan shikoyat qilish;

- kameral soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha talabnomada ko'rsatilgan tafovutlarning asosnomasi sifatida soliq maslahatchilari tashkilotining xulosasini taqdim etish.

Sayyor soliq tekshiruvlari yoki soliq auditini o'tkazishda soliq to'lovchilar quyidagi hollarda soliq organi mansabdor shaxslarini soliq tekshiruvini o'tkazish uchun hududga va joylarga qo'yimaslikka haqli, agar:

- sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi buyruq belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan va buyruq nusxasi soliq to'lovchiga

- berilmagan bo'lsa, soliq to'lovchi uni olishdan bosh tortgan hollar bundan mustasno;

- tekshiruvchi mansabdor shaxs tekshiruvni tayinlash to'g'risidagi buyruqda ko'rsatilmagan, o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatmagan bo'lsa;

- soliq tekshiruvini o'tkazishning buyruqda ko'rsatilgan muddatlari boshlanmagan yoki o'tib ketgan bo'lsa.

Tadqiqot ishimizning ushbu paragrafida mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq organlari tomonidan nazorat qilishda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlar atroficha o'rganilgan holda tadqiq etildi.

Mazkur paragraf yuzasidan qisqacha xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni tartibga solishga oid amaldagi qonun-hujjatlarida barcha tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi, shuningdek tadbirkorlar faoliyati tekshirilayotganda ularni huquqiy qo'llab-quvvatlash masalalari qonun-hujjatlari bilan kafolatlangan.

XULOSA

Fikrimizcha, soliq nazorati tadbirlari amalga oshirilayotganda Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlarining qoidalarini buzgan holda tadbirkorlik subyekti to'g'risida axborot to'plash, saqlash, undan foydalanish va uni tarqatishga, shuningdek soliq sirini oshkor qilishga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan qoidalar amaldagi Soliq kodeksining soliq nazoratini tartibga solib turuvchi tegishli moddalarida aks etishi lozim deb hisoblaymiz. Bu masala soliq tekshiruvlari jarayonida tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi qonunchilik bilan yanada mustahkamlanishiga xizmat qilishi bilan o'z ahamiyatiga egadi

ADABIYOTLAR/ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES:

1. <https://www.irs.gov/irs-history-timeline>; м
2. История налоговых проверок - Э.Н.Елькина, 2014;
3. Jumaev U.X. Rossiya imperiyasining Turkistondagi soliq siyosatining shakllanishi: asosiy bosqichlari va taraqqiyoti. Tarix. fan. bo'yicha fal. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – T.:, 2012. – 23 bet
4. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2022. 170-bet;
5. Isayeva Farida Babamuratovna – Soliq huquqi. Darslik – 2017. 74-bet;
6. Адвокатова А.С. Налоговый контроль в условиях модификации отношений налоговых органов и налогоплательщиков. Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М., 2013. – 26 с. // Advokatova A.S. Tax control in conditions of modification of relations between tax authorities and taxpayers. Abstract of the dissertation for the degree of candidate of economic sciences. – М., 2013. – 26 p;
7. Нестеров Г.Г. Развитие механизмов налогового контроля в системе обеспечения экономической безопасности. Автореферат дис. д.э.н. – М., 2010. С. 17.
8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-40158>.